

OILA-HAYOTNING ABADIYLIGINI TA'MINLOVCHI MUQADDAS MASKAN

Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi

Termiz davlat pedagogika instituti,

Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq

ta'limi yo'nalishi 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning tayanchi, hayotning abadiyligini ta'minlovchi muqaddas maskan oila, oilaning inson mustaqil shaxs sifatida shakllanishidagi o'rni xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, dunyoqarash, tarbiya, shaxs, milliy qadriyatlar,

СЕМЬЯ-СВЯЩЕННОЕ МЕСТО, ОБЕСПЕЧИВАЮЩЕЕ ВЕЧНОСТЬ ЖИЗНИ

Аннотация: В данной статье рассматривается опора общества, святое место, обеспечивающее вечность жизни семьи, роль семьи в становлении человека как самостоятельной личности. Ключевые слова: семья, общество, мировоззрение, воспитание, личность, национальные ценности

FAMILY-A SACRED DWELLING THAT ENSURES THE ETERNITY OF LIFE

Annotation: this article will talk about the backbone of society, the holy dwelling family that ensures the eternity of life, the role of the family in the formation of a person as an independent person. Keywords: family, society, worldview, upbringing, personality, national values,

KIRISH

Insonning hayot haqidagi dastlabki tasavvurlari shakllanadigan, jamiyatga qo'shiluvda eng muhim ahamiyatli bo'lgan dargoh bu-oiladir. Oilani mo'jazgina bir jamiyatcha deb faraz qilsak, butun insoniyat jamiyatining daxlsizligi aynan shu "jamiyatcha"ning jipsligiga bog'liq. Demak, q aysiki jamiyatdagi oilalar mustahkam emas ekan, bu jamiyat harbiy qudrati va boyligidan qat'i nazar, halokatga mahkumdir. Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan eng mustahkam muhabbatdir. Shuning uchun ham u kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatish jihatidan odamning eng muhim va eng hayotbaxsh tuyg'usidir. O'z uyida baxtli bo'lgan kishigina chinakam baxtlidir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev oila

xususida to'xtalib, quyidagi fikrlarni bildiradi: "Oila mehr va baxt qo'rg'oni. Oila bor ekan, farzand degan bebaho ne'mat bor, insoniy qadr-qimmat va ma'naviyat bor. Oilaviy baxt bu eng ulug' saodatdir".[1]

Mamlakatimizda amalga oshirib kelinayotgan keng qamrovli ijtimoiy islohotlarning mazmun-mohiyati oila manfaatlarini himoya qilish, uning jamiyatdagi muhim ijtimoiy institut va barkamol avlodni tarbiyalash o'chog'i sifatida mustahkamlash, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-tarbiyaviy asoslarini qo'llab-quvvatlash, oilaviy tarbiya va reproduktiv salomatlik hamda bu boradagi tizimli ishlardan tarkib topadi.

Inson borki, oilada tug'iladi, voyaga yetadi. Oilalardan jamiyat tashkil topadi. Baxtli va farovon oilalar ko'paysa, jamiyat rivojlanadi. Har bir insonning oila oldida, o'zining jamiyat oldida mas'uliyati bor. Ma'lumki, oila ijtimoiy hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini, tarbiyaning uzluksizligini ta'minlaydigan, kelajak avlod, qadriyatlar tizimiga o'z ta'sirini o'tkazadigan ijtimoiy makon.

O'zbek xalqida azal-azaldan oila, ota-ona va farzand, er-xotin munosabatlari o'zgacha qadrlanib kelgan. Bu borada buyuk mutafakkirlarimiz ham o'z asarlarida qimmatli fikrlarni bildirib o'tganlar. Jumladan, Abu Ali Ibn Sinoning oilaviy munosabatlar haqida bayon etgan fikrlari bag'oyat qimmatlidir. Olim "Tadbir-al-manozil" asarida oilada er va xotinning yaxshi sifatlarini sanab o'tadi. Ularning shaxsiy namunalari bola uchun o'rnak bo'lib, uning kelajak taqdirini belgilashda muhimligini alohida ta'kidlaydi. Ibn Sino ota-onalarning bolalar bilan olib boriladigan suhbatining sharti to'g'risida mulohaza yuritib: "Siz gaplashish, fikr olishda xayrixohlik talablariga rioya qilgan holda ish ko'rsangiz, yo'ldan adashmaysiz va to'siqlarga duch kelmaysiz". "Bolada yaxshi xarakter va xulq-atvorni tarbiyalash uchun uning shaxsini hurmat qilish kerak, uni sevishtirish va e'zozlash lozim. Uning oldida yomon gapirmaslik, ortiqcha harakatlar qilmaslik kerak, lekin tarbiyada talabchanlik bo'lishi lozim" degan g'oyani ilgari suradi.

Alisher Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarida ayolning oila turmushdagi hissasiga va shaxsiy namunasiga quyidagicha to'xtaladi: "Yaxshi rafiq-oilaning davlati va baxti. Uning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan".

Abdurauf Fitrat aytganidek, avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi axloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'yimizdagi bu xizmat majburiyati sodiq bo'ladi. Kimki, badaxloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi deydi. Jamiyat ularning farzandlaridan bezor bo'ladi. Xush va yaxshi axloqqa ega bo'lgan farzand, xushaxloq iymon sohibi bo'lgan ota-onalardan bo'ladi, agarda ota-ona axloqsiz bo'lsalar, ularning tarbiyalari soyasida o'sgan farzand ham badaxloq bo'ladi",—deya bola tarbiyasida ota-onalarning namuna bo'lishi haqida qimmatli fikrlarni ilgari surgan.

Oila nafaqat har bir shaxs uchun ma'naviy boshpana, balki jamiyatning ijtimoiy negizini tashkil qiluvchi mustahkam poydevordir. Shuning uchun oila-jamiyatning negizi va undagi asosiy bo'g'in sifatida muhim ahamiyatga ega. Oilaning ahilligi va totuvligi nafaqat oilaning o'zi uchun, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Shu sababli oilani saqlash va uni mustahkamlash—har birimizning burchimizdir. Oilaning asosiy mas'uliyati farzandlarni nafaqat moddiy tomondan ta'minlash, balki ularga to'g'ri tarbiya berishdan iboratdir. Oilada shakllangan qadriyatlar farzandlarni barkamol shaxs sifatida kamol topishida muhim o'rin tutadi. Masalan, oilada mehnatsevarlik, halollik, birdamlik kabi xislatlar tarbiyalansa, bu xislatlar farzandlar orqali jamiyatga yetkaziladi.

Asosiy qism

Oila o'z xohishicha yashashi kerakmi yoki jamiyat talablarini bajarishga majburmi? Agar jamiyat talablariga bo'ysunib yashashi shart bo'lsa, oilaning hech qanday haq-huquqi yo'qmi? Bu o'rinda ham savol umumiy tarzda emas, aniq masalalar bo'yicha o'rta qo'yilishi kerak. Ya'ni, jamiyat oilaning pok bo'lishini talab etadimi, demak, bu talabga bo'ysunishi shart. Jamiyat oiladan oqil farzand tarbiyasini talab etadimi, demak, bu talabni ham so'zsiz bajarishi zarur. Lekin bu talablarni barcha oilalar bir xilda bajarmayilar. Chunki barcha oilalarning bu sohalaridagi tushunchalari, hayotiy tajribalari turlicha. Har bir xalqining, hatto har bir mamlakatdagi har bir viloyat, shaharning o'ziga xos urf-odatlari oila va jamiyat orasidagi munosabatlarni o'ziga xos ravishda belgilaydi.

Oilaning huquqiy maqomi Konstitutsiyamizning 76-moddasida aks etgan bo'lib, oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi.[2] Bu qoidadan ham ayonki, oilalarning mustahkam, tinch bo'lishi uchun jamiyat va davlat mas'uldir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev oila borasida quyidagi fikrni bildiradilar: “Oila men uchun muqaddas. Muqaddasligi shuki, avvalambor qayerda ishlashidan qat'i nazar, kim bo'lishidan qat'i nazar agar oilada tarbiya, oilada muhit, oilada halollik, munosabat, tarbiyaga alohida e'tibor bermasa, hech qachon natija bo'lmaydi”.[3] Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qarab oladigan murakkab jarayondir. Bugungi kunda oilaviy tarbiyaning qiyinlashuvi shundaki, birinchidan jamiyat taraqqiy etib borgani sari har tomonlama yetuk insonni shakllantirish talablari ortib boraveradi. Bu esa oilada bolaga estetik, axloqiy tarbiya berish sifati va ko'lamini oshirish talabini qo'yadi. Ta'lim-tarbiya, odob-axloq bolalikdan berilgani ma'qul. Rasululloh (a.s): “Birontangiz o'z farzandingizni tartib-intizomga o'rgatsangiz, bu har kuni sadaqa

berganingizdan yaxshiroqdir”, deya marhamat qilganlar. Bolalarni intizomga o‘rgatish oila mustahkamligiga asos bo‘ladi.

Sharqda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashga qadimdan jiddiy ahamiyat berilgan. Ular “Nasihatnoma”, “Pandnoma”, “Hikmatnoma” tarzida bizgacha yetib kelgan. Bu manbalarda qizlarni hayotga tayyorlashda, ularda birinchi navbatda insoniy fazilatlar shakllangan bo‘lishi, oila muqaddas, uni avaylab-asrash aynan uy bekalariga bog‘liq ekanligiga urg‘u berilgan. Bolalarni kamtarlik va donolikka o‘rgatishda buyuk o‘zbek mutafakkiri Abu Ali ibn Sino kabi olimlarimizning hayot namunalari va bizga meros qilib qoldirgan durdona fikrlarini asos qilib olish foydalidir. U manmanlik, maqtanchoqlik va o‘zidagi bilimga ortiqcha baho berish kabi xususiyatlarni kishining axloqi past ekanligini ko‘rsatuvchi belgilar deb ta’kidlaydi. Uning fikricha oilada bola yoshligidan boshlab faqat yaxshi odatlarga o‘rgatilishi kerak. Bu esa unda mustahkam xarakter shakllanishiga zamin yaratadi. Mutafakkir “bolaning xulqini mo‘tadillikda saqlashga alohida e’tibor berish kerak. Unga esa bolalarni qattiq g‘azablanishdan, qo‘rqish, xafalik, uyqusizlikdan saqlash orqali erishiladi. Bolani xohlagan va foydali narsasini darhol topib berishga hamda sevmagan narsasini ko‘zdan uzoqlashtirishga dom tayyor bo‘lib turishi kerak. Bu ishning ikki xil foydasi bor. Bir tomondan bolaning ruhiga foyda qiladi, bolada eng yosh chog‘ligidanoq xushxulq odam bo‘lib qoladi. Ikkinchi tomondan, bolaning tanasiga foyda qiladi. Chunki yomon xulq turli mijoz buzlishlariga sabab bo‘ladi”– deb ta’kidlaydi.[4] Shuningdek, oila boshlig‘i oldiga katta talablarni qo‘yadi, u oilaviy tarbiyani ham amaliy, ham nazariy tomondan yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Bola tarbiyasi juda murakkab jarayon, oiladagi tarbiyaviy jarayonlarni bitta tizimga keltirishning imkoni yo‘q. Farzand tarbiyasi jarayonida bola huquqlarining kamsitilmasligi talab etiladi. Oilaviy tarbiya ijtimoiy tarbiyaga nisbatan bola huquqlariga, bolalarning ruhiy olamiga, hissiyoti va tasavvuriga ta’sir ko‘rsatadi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo‘lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o‘ta muhim ahamiyatga ega ekanini qayd etib o‘tgan. Bu haqida u shunday deb yozgan: “Tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo‘lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keyingi tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi”.[5]

O‘zbek xalqining ibratomuz, ayniqsa yoshlarni tarbiyalashda katta ta’sir eta oladigan urf-odatlar, an’analar, rasm-rusumlari va marosimlari borki, bularni bugungi kunda oilada bolalar ongiga, kundalik hayot tarziga singdirish yoshlarning ma’naviy tahdidlar ta’siriga tushib qolishining oldini olishdagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an’analar xalq ma’naviyatini boyituvchi muhim omil ekanligi haqida gapirib, Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan edilar: “Har qaysi xalq yoki millatning ma’naviyatini uning tarixi, o‘ziga

xos urf-odat va an'analar, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi"[6]. O'z oilaviy, milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini teran anglagan, uni e'zozlagan, asrab-avaylagan, undan faxrlana oladigan kishi chinakam xalqparvar, millatparvar sanaladi. Aynan oilada ota va ona insonning bu dunyoda qolishiga sababchi hisoblanishadi. Alloh ularni sababchi qilar ekan, farzandlar uchun haqli qilib qo'yadi. Otaning farzandiga tarbiya berish, moddiy va ma'naviy jihatdan ta'minlash vazifalariga burchli va mas'uldir. Ona esa chaqaloqni to'qqiz oy ko'tarib yuradi, oq suti oila parvarishlaydi. Yaxshi umidlar ila oq yuvib, oq taraydi. Farzand katta bo'lganidan so'ng burchdorlik tuyg'usini his etadi.

Olimlarning yozishicha go'dak, nihoyatda kichiklik davrlaridayoq otasini, onasini taniydi. Lekin vujudida buni hali tili chiqmaganligi sababli ayta olmaydi. Ayniqsa bola xastalikka chalingan paytida ota-onasidan ruhan quvvat olib, tuzalish payida bo'ladi. Gohida ota-onasini ko'rmay, ma'yus tortadi. Buni ichikish deydi. Shundan xulosa chiqarsak bo'ladiki, farzand hayotida oila–ota va onaning ahamiyati beqiyosdir. Ota-ona mehrini, muhabbatini hech bir tuyg'uga qiyoslab bo'lmaydi. Bu tomirda oqayotgan qonga tutashadi.

Ota-oila boshlig'i. Ota oilani moddiy va ma'naviy ta'minlaydigan inson. Hazrat Alisher Navoiy otani quyoshga, onani oyga o'xshatadi. Bu ikki tushuncha birgalikda yaxlitlik kasb etadi. Ya'ni, quyosh va oy birgalikda dilimizni nurlantiradi.

Taraqqiy etgan millatlarda, shu jumladan sharq xalqlarida shajara otaga qarab belgilanadi. Masalan, siz bilan tanishishni istaganlar, oilangiz haqida, eng avvalo, otangiz kim deya savol beradilar. Otaning darajasi, fe'l-atvori farzand fe'lini aniqlashda belgi bo'lib xizmat qiladi. Ayrim hollardagina farzandning xulqi boshqacha bo'ladi. Oilada o'zaro mehr-muhabbat, ota-onalar o'rtasida hurmat, sadoqat, vafo tuyg'ulari hukmron bo'lsa, oila totuv bo'ladi. Bu borada N.Chernishevskiy quyidagi fikrlarni bildiradi: "Oilaviy muhabbat odamlar orasida keng tarqalgan, eng mustahkam muhabbatdir, shuning uchun ham u kishilar hayotiga ta'sir ko'rsatish jihatidan odamning eng muhim va eng hayotbaxsh tuyg'usidir".[7]

Otaning farzand xulqini muhokama etishga, unga tanbeh berishga haqqi bor. Farzandning ota fe'lini muhokama qilishi odobsizlikka kiradi. Ota-onaga shirin muomala qilishlik, pand-nasihatga quloq tutishlik amallari baxt eshiklariga kalit bo'lib tushishiga shak-shubha yo'q.

Xulosa

Hammamizga ma'lumki, ma'naviy barkamol va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalashda oilaning o'rnini juda muhim. Inson, avvalo, oilada tarbiyalanadi, aynan oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analar o'rgatiladi, nasldan-naslga qoldiriladi. Har bir oila o'zining qadriyatlariga ega bo'lsa-da, lekin, jamiyatimizda uni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilalarning mustahkamligini

ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o'rganishni va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishni muvofiqlashtirish ishlari keng yo'lga qo'yilgan. Oila vatan ichra kichik Vatandir.

Ota-onasiga yaxshilik qilgan kishi el orasida e'tibor topadi. Zotan, o'z otasini, onasini qadrlashni bilgan, oilasining farovonligiga hissa qo'shgan odamgina boshqalarni qadrlash fazilatiga ega bo'ladi. Mustahkam oila jamiyat ziynati va muqaddas dargohdir. Inson oilasiga, ota-onasiga qancha xizmat qilsa, shuncha baraka topadi. Oilaga xizmat, vatanga xizmat qilish bilan hamohang bo'lsa, ota-onasining duosini olgan farzand esa ikki dunyo saodatiga yetgay nasib.

Kimki oila qadrini bilmasa, ota-onasiga zulm o'tkazsa, ularning pand-nasihatlariga quloq tutmasa, ularni mensimasa, bu hol munofiqlikdan boshqa narsa emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.Mirziyoyev. <https://yuz.uz/uz/news/prezident> nutqi
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Toshkent 2023-yil,43-bet
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-dekabrda Oila-jamiyatning asosiy va muhim bo'g'inidir mavzusida so'zlagan nutqidan.
4. Abu Ali Ibn Sino "Tadbirul manozil" asari,Toshkent 1979-yil
5. O.Omonboyev Bola tarbiyasidagi xatolar. <https://www.universalconference.us/universalconference/index.php/crismw/article/view/3000/4230>
6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov „Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch"asari. „Ma'naviyat,,nashriyoti 2008-yil.29-30-bet
7. Yangi O'zbekiston.[https:// yuz.uz](https://yuz.uz)
8. <https://oila.qadriyat.uz>
9. Hakimova, M. (2025). Ikkinchi jahon urushi davrida Surxon vohasi ayollarining maorif va madaniyat sohasiga qo 'shgan munosib hissalar. *MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI JURNALI*, 3(6).